

SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIGA KIRITILGAN O'ZGARTIRISHLARNING MAZMUN- MOHIYATI

Shomurodova Nodira Xamroqulovna

*Oriental universiteti tarix fakulteti 2-bosqich magistri
Chilonzor tumani 1-son politexnikumi ijtimoiy fanlar o'qituvchisi*

Annotatsiya: *O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari Konstitutsiyaga muvofiq tan olinadi va kafolatlanadi. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson-jamiat-davlat manfaatlari aks etadi, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, mafkuraviy munosabatlar tartibga solinadi, mamlakatning keyingi taraqqiyot istiqbollari belgilab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, inson huquqlari, erkinliklar, inson-jamiat-davlat manfaatlari, mamlakat, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, mafkuraviy, taraqqiyot istiqbollari.*

Inson huquqi demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining eng muhim belgisi bo'lib, u davlatning qay darajada rivojlanganligini ko'rsatuvchi o'ziga xos mezondir. Shu maqsadda, Konstitutsiyaga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartishlarda inson huquqini ta'minlashga qaratilgan quyidagi mazmundagi konstitutsiyaviy qoidalar o'rin egallashi maqsadga muvofiq: birinchidan, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari Konstitutsiyaga muvofiq tan olinadi va kafolatlanadi. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson-jamiat-davlat manfaatlari aks etadi, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, mafkuraviy munosabatlar tartibga solinadi, mamlakatning keyingi taraqqiyot istiqbollari belgilab beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022 yil 20 dekabrda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida, "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat" degan g'oyani Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerak. Hozirgi kundagi jiddiy sinovlar va bashorat qilib bo'lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o'tishga qodir bo'lgan milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlashimiz zarur. Shularni e'tiborga olgan holda, Asosiy qonunimizni takomillashtirish ishlari davom ettirilmoqda. Ushbu islohotdan xalqimiz katta o'zgarishlar kutmoqda. Bugungi kunga qadar bu borada 220 mingdan ziyod taklif kelib tushgani ham buning yaqqol dalili" - ekanligini alohida ta'kidlab o'tdilar.

Konstitutsiyaviy islohotlar xalqning tafakkuri va dunyoqarashi bilan doimiy takomillashib borishi lozim.

Darhaqiqat, Konstitutsiya o'zgarishlari, qotib qolgan hujjat emas, aksincha, jamiyat va davlatda turli ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan, insonlarning zaruriy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ham konstitutsiya zamon bilan hamnafas tarzda takomillashib boraveradi. Xorijiy mamlakatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hozirgi kunda 500 ga yaqin konstitutsiya mavjud bo'lib, shulardan 200 ga yaqini mustaqil davlatlar konstitutsiyalari, 300 ga yaqini esa federatsiya subyektlari konstitutsiyalari hisoblanadi. AQSH Mustaqillik deklaratsiyasi asoschilaridan biri Tomas Djeffersonning qiziq bir mulohazasi diqqatimizni e'tiborga tortadi, ya'ni uning taxminicha har 19 yilda konstitutsiyalar o'zgarishi kerak, negaki

shu vaqt orasida qariyb aholining yarim qismi yangilanadi va amaldagi konstitutsiya uning qiziqishlarini to'liq qamrab olmaydi.

Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayonni tartibga solish qo'shimcha qonunlarga murojaat etishni taqozo etadi. Masalan, Konstitutsiyaga referendum yo'li bilan o'zgartirish kiritish uchun "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"gi Qonun talablaridan kelib chiqish lozim. Mazkur Qonunning 1-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining referendumi O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Bu Qonunga ko'ra, referendumga qo'yiladigan masala davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalaridan sanalishi bilan bir qatorda ayrim masalalarga daxldor bo'lmasligi lozim, ya'ni qonunning 2-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini o'zgartirish, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va soliqlar, amnistiya va avf etish, jamoat tartibini, aholi sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha favqulodda va shoshilinch chora-tadbirlar o'tkazish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish, mansabdor shaxslarni tayinlash va vazifasidan ozod etish masalalari referendum predmeti bo'lishi mumkin emas.

Demak, yuqoridagilar referendum predmeti bo'lmagani kabi, Konstitutsiyadagi bunga taalluqli masalalarga referendum yo'li bilan o'zgartirish kiritish ham mumkin bo'lmaydi.

Referendum o'tkazilgach, qabul qilingan qaror Markaziy saylov komissiyasi tomonidan e'lon qilinib, respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'ladi va davlat hokimiyati organlarining hujjatlari bilan biron-bir tarzda tasdiqlashni talab qilmaydi. Mabodo, referendumda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim normalariga o'zgartirish kiritishni taqozo etuvchi qaror qabul qilinsa, Konstitutsiyaning muayyan normalari referendum qaroriga muvofiqlashtiriladi.

Tarixan olib qaraganda, 1992 yilda qabul qilingan konstitutsiyaga hozirgi kunga qadar 16 marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Bu yangilanishlarning asosiy qismi ham davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish bilan uzviy bog'langan edi. Jamiyatda olib borilayotgan o'zgarishlar jarayoni, xususan, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida, davlatning taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim yo'nalishlarda bir qancha maqsad va vazifalar belgilab berildi. Albatta, buning negizida inson manfaatlari har narsadan ustun g'oyasi ustuvorlik ahamiyat kasb etdi. Ko'plab qonunlar, qonun osti hujjatlar, davlat dasturlari, kontsepsiyalar ishlab chiqish vazifalari yuklatildi.

Asosiy vazifasi sifatida inson huquq va erkinliklarini himoyalashga qaratilib, 2017-yil 6-aprelda "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasida sud tizimini takomillashtirish va uning faoliyati samaradorligini oshirish, sudyalar korpusini yanada mustahkamlash va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida kiritildi.

2017-yil 1-iyunda e'lon qilingan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida (80, 93, 108 va 109-moddalariga)gi qonunida,

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi maqomi, faoliyati qayta ko‘rib chiqilib takomillashtirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1- moddasiga muvofiq, O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma‘noni anglatadi”. Ushbu qo‘shimcha bilan O‘zbekiston davlatining siyosiy-huquqiy maqomiga yangi uchta, ya‘ni “huquqiy davlat”, “ijtimoiy davlat” va “dunyoviy davlat” tushunchalari qo‘shimcha qilingan⁶.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Qonunchilik palatasi va Senatining mas‘uliyati sohalarini ajratish, ularning faoliyatidagi parallellikni va bir-birini takrorlashni istisno etish bo‘yicha muhim qadamlar tashlandi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan modelga binoan, Hukumatni tashkil etish va uning faoliyati ustidan nazorat parlament quyi palatasining mutlaq vakolatiga kiritildi.

Vazirlar Mahkamasining vakolatlari va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, avvalambor, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular doirasi bosqichma-bosqich kengayib bormoqda.

Masalan, 2011 yilgi tahririda Vazirlar Mahkamasining atigi 2 ta vakolati aniq ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2014 yilgi konstitutsiyaviy islohotlardan so‘ng, ularning soni 6 taga yetdi.

2023 yil 30 aprelda referendumda xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyada esa, Vazirlar Mahkamasining vakolatlari ikki baravarga ortib, 12 taga yetdi.

Xususan, Hukumat samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta‘lim, sog‘liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar bo‘ladi.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatni rivojlantirish va sud-huquq tizimini yanada isloh etish sharoitlarida qonuniylikka va fuqarolarning huquqlariga qat‘iy rioya etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu borada, sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida tarkibiy qismi bo‘lib, qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati, siyosiy partiyalar hamda jamoat birlashmalaridan mustaqil ravishda harakat qiluvchi hokimiyat tarmog‘idir.

Sud hokimiyati davlat organlari tizimida muhim o‘rin egallaydi. Sud hokimiyatining faoliyati inson huquqlari va erkinliklariga bevosita aloqador bo‘lib, odil sudlovni amalga oshirish faoliyati natijasida shaxslarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kafolatlanadi. Sud hokimiyati huquqiy maqomining Konstitutsiyaviy belgilanishi mazmunan shunday ifodalanadiki, unga asosan fuqarolarga nisbatan sudlovni amalga oshirishda o‘zboshimchalikka yo‘l qo‘ymaslik, odil sudlovni amalga oshirish, huquq va erkinliklar kafolatini yaratish, shuningdek, fuqarolarga nisbatan chiqarilgan sud qarorlari yuzasidan shikoyat qilishlari uchun imkoniyat yaratish hamda sudyalarning mustaqilligini ta‘minlash va

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 4 b.

ularning huquqiy holatini mustahkamlashdir⁷. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada bu tizimda ham qator o'zgarishlar amalga oshirildi.

Shu tariqa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Vazirlar Mahkamasining maqomini tubdan modernizatsiya qildi, uning Prezident va Oliy Majlis oldidagi mas'uliyatini yanada oshirdi, Hukumatni shakllantirish tartibini yanada demokratlashtirdi, vakolatlar doirasini va javobgarligini kuchaytirdi.

Konstitutsiyaga kiritilgan yana bir muhim o'zgartirish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish huquqining berilishi bilan bog'liq. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasida belgilanishicha, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida doimiy ziddiyatlar kelib chiqqan taqdirda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga kiritiladi.

Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo'yicha qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi. Mazkur norma davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash bilan bir qatorda, davlat ahamiyatiga molik muhim masalalarni hal qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytiradi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining davlat hokimiyati organlari tizimidagi o'rnini ancha oshiradi.

Shu tariqa, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ushbu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 1 may kundan kuchga kirib, Konstitutsiya 1 ta muqaddima, 6 – bo'lim, 27 – bob, 155 – moddadan iborat bo'ldi.

Xususan, uning muqaddimasaida aytilgan:

Biz, O'zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan jamiyat va davlat qurilishini erkinlashtirish islohotlari mahalliy hokimiyat vakillik va ijroiya organlari faoliyatining huquqiy asoslari - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining takomillashib borishni taqozo etganligi sababli Konstitutsiyasiga tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

⁷ Rustambayev M.X. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida sud hokimiyati. Risola. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. – 5 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, 2022 yil 20 dekabr`.
- 2.O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2001 yil,
- 3.Zulfiqarov Sh.X. Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalarkiritish tartibi. Risola. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. – 10 b.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 4 b.
- 5.Safarov D.I., Rizoyev F.F. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi. Risola. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. – 13 b.